

MIRZO ULUG‘BEKNING ILM-FAN HOMIYSI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.016>

Xoliqulov Azizbek Yorqulovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi PhD

Norqo‘ziyeva Dilafruz Pulat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: maqolada ilm-fan homiysi, buyuk qomisiy olim, shoh va sarkarda Mirzo Ulug‘bekning Movaraunnahr, xususan, Samarqanddagi ilmiy muhit, ta‘lim sohasining rivojlanishidagi o‘rni, o‘rta asrlar ilm-fani rivojida Ulug‘bek madrasasi va Ulug‘bek rasadxonasining muhim ahamiyati haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, fan va ta‘lim, rasadxona, madrasa, tolibi ilm, Xondamir, Mirxond, “Ravzatu-s-safo”.

Abstract: The article discusses the role of the patron of science, the great scholar, king and commander Mirzo Ulugbek in the development of the scientific environment and education in Transoxiana, in particular in Samarkand, and the important role of the Ulugbek Madrasah and the Ulugbek Observatory in the development of medieval science.

Keywords: Mirzo Ulugbek, science and education, observatory, madrasah, student of science, Khondamir, Mirkhand, "Ravzatu-s-safo"

KIRISH. Mirzo Ulug‘bek iqtidorli yoshlarni to‘plash va ularga ta‘lim berish masalalariga ham e‘tibor bergan. Uning shogirdlaridan biri Ali Qushchining tavsiyasi bilan bo‘lajak buyuk shoir va donishmand Abdurahmon Jomiyning Samarqandga kelgani ma‘lum. O‘z navbatida Jomiy Alisher Navoiyga rahnamolik qilgan. Navoiy esa ko‘pgina yoshlarga tarbiya bergan. Uning topshirig‘i va rahnamoligida shogirdlaridan Xondamir va Mirxond tomonidan tayyorlangan “Ravzatu-s-safo” nomli qomusiy kitob Samarqand universiteti fondlarida saqlanmoqda. Ulug‘bek ilmiy maktabida turli millat vakillari ta‘lim olganlar va xizmat qilganlar. Jumladan, Alovaddin ibn Muhammad Ali Qushchi Samarqanddan, Abdulali bin Muhammad bin Husayn Birjandiy Erondan, Mariyem (Mirim) Chelebi Turkiyadan va hokazo.

MULOHAZA VA TAKLIFLAR. Mirzo Ulug‘bek matematikani shu darajada chuqur bilganki, ilmiy muhokamalarda hech kim uning so‘zini bo‘lishga haddi sig‘magan. Ulug‘bek madrasasi mudarrislari mashg‘ulotlarga tuni bilan tayyorgarlik ko‘rib, minglab usul va vositalar yordamida dars olib borgan. Mirzo Ulug‘bek astronomiya va matematikaga oid ilmiy yangiliklarni eshitishni xush ko‘rgan. Jahonning qaysi mamlakatida ushbu fanlarga doir kashfiyot bo‘lsa, uni o‘rganib, faoliyatiga tatbiq etishga ishtiyoqmand bo‘lgan. Ittifoqo Yusuf Xalloy ismli shaxsning o‘g‘li Misr, Shom o‘lkalarida bo‘lib, astronomiya

bo'yicha yangi uskunalarni Samarqandga keltiradi. Ulug'bekka "zarqala" nomli astronomik jihoz taqdim etadi. Alloma hukmdor o'z olimlariga "zarqala"ni diqqat bilan o'rganish bo'yicha topshiriq beradi. Mirzo Ulug'bek dunyoqarashi va bilim doirasi keng olim sifatida ilm-fan barobarida tarixiy hodisalarni ham, san'at asarlarini ham yaxshi o'rgangan va teran idrok etgan. Butun umri davomida ma'naviy, axloqiy va jismoniy komillik cho'qqisiga intilib yashagan buyuk bobokalonimizning hayot yo'li yoshlarimiz uchun katta ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Registon maydonidagi madrasa qurilishining boshlanish sanasi noma'lum. Kirish qismidagi yozuv saqlangan: "820 (1417)-yil. Ma'lum bo'lsin: bu imorat dunyodagi joylarning eng zo'r va eng balandi, san'at va ishdagi binolarning eng mukammali...". Bu 1417-yilda madrasa binosi qurilishi tugallangan degan xulosaga kelish imkonini beradi. Movarounnahrda bunday inshootlarni qurish kamida 5-6 yil davom etgan. Asosiy ish 1420-yilda yakunlanganligi hisobga olinsa, qurilish 1415-yildan boshlangan deb taxmin qilish mumkin. Madrasa loyihasi muallifi amir Shohruh Kavom-ad-din Sheroziy hisoblanadi, biroq o'rta asr tarixchisi, Ulug'bekning zamondoshi Vosifiy me'morni Qozizoda ar-Rumiyning shogirdi Kamoliddin Muhandis deb ma'lumot beradi.

Ulug'bek madrasasi qurilishi tugallangach, XV asr musulmon Sharqidagi eng nufuzli universitetlardan biriga aylandi. Rivoyatlarga ko'ra, bu yerda mashhur mutasavvuf, shoir, olim va faylasuf Abdurahmon Jomiy tahsil olgan. Madrasa tinglovchilari orasida naqshbandiya tariqatining shayxi Xoja Ahror va shoir Alisher Navoiy ham bo'lgan. Ta'lim muassasasida matematika, geometriya, mantiq, tabiiy fanlar, ilohiyot, falsafa bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan. Ularni Qozizoda Rumi, Jamshid G'iyosiddin Al-Koshiy, Al-Qushchi kabi mashhur olimlar, shuningdek, Ulug'bekning o'zi o'qigan. Universitetning birinchi mudarrisi (rektori) etib chuqur ilmiy bilimlarga ega Mavlono Muhammad Havofiy tayinlanadi.

Ulug'bek madrasasi o'z davri talablariga to'la mos ravishda musulmon qonunlari asosida qurilgan. Bu Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqdagi ma'naviy-ma'rifiy muassasaning klassik namunasi. Ulug'bek madrasasi 2 qavatli, to'g'ri to'rtburchak tarhli (56×81 m.). Bosh tarzi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq mujassamotida keng toqili ravoq (balandligi 16,5 m.), uning 2 yonida guldastalar (balandligi 32 m.) bor. Ravoq tepasidagi yulduzli osmon aks etgan qanos bezaklari o'ziga xosdir. Guldasta tepasi muqarnas, sharafalar bilan yakunlangan. Peshtoq ravog'i cheti morpech shaklida, tokchasidagi namoyonlar o'ziga xos uslubda pardoziqlangan. Peshtog'i, guldastasi va tashqi devorlarida girih naqshining turli betakror namunalari aks etgan. Ganchkori panjaralar orqali xonaga yorug'lik tushib turadi. Moviy va ko'k koshin hamda sopol gishtlar vositasida Samarqanddagi Ulug'bek madrasas geometrik naqshlar bilan bezatilgan devor satqi yozuvlar bilan o'zaro uyg'unlashib, ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Peshtoq orqali chorsi hovli (30×30 m.)ga o'tiladi. Hovli atrofi 2 qavatli hujralar (48 ta) bilan o'ralgan, har bir qujra

qaznoq, yotoqxona, umumiy xonadan iborat. Madrasaning shimol va janub tarzlari o'rtasida tashqi tomondan alohida peshtoqlar bor.

Dastlab madrasa 50 ta hujradan iborat bo'lib, unda yiliga yuzdan ortiq talabalar tahsil olishgan. Tarixchilar aytishiga ko'ra, Ulug'bekning o'zi madrasada dars bergan. Taniqli fors shoiri Jomiy bu yerda yashab, ijod qilgan. Jomiyning tinglovchilari orasida eng mashhur Naqshbandiya tariqati namoyondalaridan shayx Xoja Ahror Vali va buyuk shoir Alisher Navoiy bor edi. Bino 2 qavatli bo'lgan, burchak darsxonalar ustida to'rtta baland gumbaz, burchaklarda esa to'rtta minoralar bo'lgan. Asosiy fasadning uchdan ikki qismini egallagan bahaybat peshtoq ulkan va chuqur nayzasimon arkali bo'lib maydonga qarab turadi.

Samarqandda, XV asrning birinchi yarmida Ulug'bekning atrofida G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiyy, Ali Qushchi kabi taniqli astronom va matematiklarni birlashtirgan butun bir ilmiy maktab vujudga keldi. U vaqtlar Samarqandda O'rta Osiyo tarixi haqida ajoyib asar yozgan tarixshunos Hofiziy Abru, taniqli shifokor Mavlono Nefis, shoirlar Sirojiddin Samarqandiy, Sakkokiy, Lutfiy, Badaxshiy va boshqalar yashagan. Ular insoniyat aqli, fanning kuchiga ishongan o'z davrining ilg'or shaxslari bo'lishgan. 1417-1420 yillar Ulug'bek Samarqandda madrasa qurdirib, Registonda barpo etilgan birinchi me'moriy ansamblga aylanadi. Ushbu madrasaga Ulug'bek islom olamining ko'plab astronom va matematiklarini taklif etadi. Qolgan ikkita madrasa G'ijduvon va Buxoroda qurilgan. Ulug'bek tomonidan qurilgan madrasalar universitet vazifasini bajargan. Ulug'bekning Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqida – "Ilmga intilish har bir musulmon uchun farzdir" yozuvi saqlanib qolgan.

Ulug'bek madrasasi Markaziy Osiyoning eng yirik o'quv yurtlaridan biri edi. Diniy ta'lim muassasi Ulug'bek davrida boshqacha ahamiyat kasb etdi. Bu yer nafaqat diniy, balki dunyoviy: astronomiya, matematika, so'fizmning diniy qobiqqa o'ralgan hurfikrli falsafasi fanlaridan bilim beradigan maskanga aylandi. Madrasada davrining Qozizoda Rumiyy kabi olimlari va Ulug'bekning o'zi ma'ruza o'qiganlar. XX – asrda Ulug'bek madrasasi bir necha bor qayta ta'mirlandi. Mutaqillik yillarida madrasa yana bir bor tubdan ta'mirlandi va binoning tarixiy ko'rinishi qayta tiklandi. XX asrning boshlarida o'sha davrning me'mor va rassomlari tomonidan madrasani qayta ta'mirlash ishlarining asosiy qismi amalga oshirildi. 1918-yilda M.F.Mauer tomonidan madrasaning bosh minorasi va yer osti qismlarini qayta ta'mirlash loyihasi ishlab chiqiladi. Yarim asr davomida binoning yuz qismi, shimoliy tomonining tashqi devorlari qayta g'isht bilan terilib mustahkam qilindi. Hovli ayvonlari mustahkamlandi, mayolika, mozayka va o'yma naqshlar qayta restavratsiya qilindi. O'tgan asr oxirida Ulug'bekning yubileyi munosabati bilan madrasada ta'mirlash-restavratsiya ishlari boshlanib ketdi. Loyiha madrasaning 2-qavatini tiklab, me'moriy keramika va zamonaviy qurilish materiallarini ishlatgan holda janubiy-g'arbiy devorlarini tiklanishini nazarda tutardi. Bugungi kunda Ulug'bek madrasasi Registonning noyob uchta gavharidan biri bo'lib, Samarqand tarixiy markazining bebaho bezagi hisoblanadi.

Samarqanddagi Ulugʻbek madrasasi esa Registon ansamblining gʻarbida joylashgan. Oʻz davrining olim-u ulamolarini tarbiyalab yetishtirgan madrasa ham Ulugʻbek Mirzoning ilm-fan sohasini rivojlantirish yoʻlidagi sayʻ-harakatlaridan biridir. Madrasa 2 qavatli, toʻgʻri toʻrtburchak tarxli (56×81 m). Bosh tarzi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq mujassamotida keng toqili ravoq (bal. 16,5 m), uning 2 yonida guldastalar (bal. 32 m) bor. Ravoq tepasidagi yulduzli osmon aks etgan qanos bezaklari oʻziga xosdir. Guldasta tepasi muqarnas, sharafalar bilan yakunlangan. Peshtoq ravogʻi cheti morpech shaklida, tokchasidagi namoyonlar oʻziga xos uslubda pardoziqlangan. Peshtogʻi, guldastasi va tashqi devorlarida girih naqshining turli betakror namunalari aks etgan. Ganchkori panjaralar orqali xonaga yorugʻlik tushib turadi. Moviy va koʻk koshin hamda sopol gishtlar vositasida Samarqanddagi Ulugbek madrasas geometrik naqshlar bilan bezatilgan devor satqi yozuvlar bilan oʻzaro uygʻunlashib, koʻzga yaqqol tashlanib turadi. Peshtoq orqali chorsi hovli (30×30 m)ga oʻtiladi. Hovli atrofi 2 qavatli hujralar (48 ta) bilan oʻralgan, har bir qujra qaznoq, yotoqxona, umumiy xonadan iborat. Madrasaning shim. va jan. tarzlari oʻrtasida tashqi tomondan alohida peshtoqlar bor. Madrasaning 4 tomonini darsxona va ayvon egallagan. Masjid (22×8 m) jan.sharqiy tomonga choʻzilgan. Tashqi toʻrt burchagida 4 ta baland minora bor. Xonaqoh va baʻzi hujralar ichkarisi naqshin bezaklar bilan pardoziqlangan. Bezaklari orasida kufiy va suls yozuvlari uchraydi. Vayron boʻlgan 2qavati, qiyshaygan guldastasi, devorlaridagi kuchib ketgan bezaklar kayta tiklangan (1936), V.SHuxov va M.Mauerlar loyihasi asosida shim.sharqiy minorasi taʼmirlangan (1932). E. Gendel qiyshaygan minorani oʻz holiga keltirgan (1965). Taʼmirlashda A. Umarov, SH.Gʻafurov, K.Jalilov, I.SHermuhamedov, A. Quliev kabi ustalar qatnashgan. U.m. meʼmoriy shakli, tuzilishi jihatidan Oʻrta Osiyo meʼmorligida shu turdagi binolar orasida eng mukammal yuksak sanʼat namunasi xisoblanad. Mustaqillikka erishilgach, Vatanimiz tarixi, ilmi, madaniyati va qadriyatlarini tarixini manbalar asosida chuqur, xolisona oʻrganish va yoritishga keng yoʻl ochildi va bu borada bir qancha yutuqlar ham qoʻlga kiritildi. Nafaqat, Movarounnahr va Sharqda, balki, butun dunyoda tan olingan va sharaflangan ajdodlarimiz al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Mansur Motrudiy, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiylarni yetishtirgan taʼlim-tarbiya tizimi, xususan oʻtmishdagi oliy taʼlim muassalari haqida ham chuqur mulohaza yuritish, mavjud manbalarning maʼlumotlari asosida ularni oʻrganish ham dolzarb vazifalardan biri boʻlib hisoblanadi. «... hozirgi kunda uzoq oʻtmishimizdagi taʼlim-tarbiya tizimi, uning bosqichlari, muassasalari yaxlit holda oʻrganilgan deb boʻlmaydi. Šolaversa, oʻtmish oliy taʼlim muassasalarining – oliy madrasalarning saqlanib qolganlari meʼmoriy yodgorliklar sifatidagina talqin qilish bilan cheklanib qolib, ularning oʻtmish oliy taʼlimi tizimida tutgan ulkan mavqyelari aniqlangan deb boʻlmaydi. Insoniyat oʻzini tanibdiki, u hayotni, tabiatni bilish yoshlarni hayotga oʻrgatish va tarbiyalash, maʼnaviyatini shakllantirish muammolariga duch kelib, bu muammolarni har bir davrda dunyoqarashi, hayotiy tajribalari va ijtimoiy ehtiyoj asosida

hal qilishga uringan: turli xil yozuvlarni yaratgan, ularni o`rgatuvchi (o`qituvchi) va o`rganuvchi (talaba)lari ham bo`lgan».

Akademik B.Valixo`jayev tadqiqotlarida tarixiy jarayon, sharoit, makon va shaxsni bir nazarga qo`yib fikr yuritadi. Oliy ta`lim tarixi haqida fikr yuritilarkan, uni asoslashdan, mavzuni muammo qilib ko`tarishdan maqsad qachonlardir madrasalar faoliyat ko`rsatganligi emas, balki, yurtimizda, xususan, olim-u allomalar yurti, ilm-fan beshigi, madaniyatlar tutashgan zamin Samarqandda oliy ta`lim rus bosqinidan keyin (1927-yil) emas, balki, bundan 500-600-yillar muqaddam paydo bo`lganligini ta`kidlash va isbotlashdir. Ustoz kuyunib shunday yozadi: «...G`arb mamlakatlaridagi Tartu (Estoniya), Uppsala (Shvesiya), Utrext (Niderlandiya), Kopengagen (Daniya) va boshqa universitetlar faoliyatida ham sodir bo`lgan, ammo har ikki mintaqada ham oliy ta`lim tizimi dargohlari madrasa, madrasai oliyalar, universitetlar o`z faoliyatlarini davom ettirganlar. Shuning uchun G`arb mamlakatlaridagi universitet ta`sis tarixlarini o`sha ilk maydonga kelgan davrlardan boshlab hisobga oladilar va bu bilan asosli ravishda faxrlanadilar.

Bas shunday ekan, nega biz oliy ta`limimizning ildizlari va uning dargohlari madrasa va madrasai oliyalarning qadimiy tarixini hisobga olmay, ularni ya`ni oliy ta`lim tizimi va ularning dargohlari tarixini 20-asr boshlari - sho`rolar davrida qayta tiklanishidan boshlar ekanmiz? Bu bilan turli xil va darajada bo`lishidan qat`i nazar uzluksiz davom etgan oliy ta`limimizning teran ildizlari, uning dargohlari bo`lmish madrasalar va madrasai oliyalarning bo`lganligi hamda boy tarixini inkor etmaymizmi?».

XULOSA. Chindan ham, Sharqdan madaniyat o`rgangan, Sharq nazariyasini tatbiq etib yuksalib ketgan G`arb oliy ta`limi tizimi o`rta asrlarga borib taqalsayu, shu madaniyatni, ilm-fanni, nazariyani ishlab chiqqan dono Sharqda, uning madaniyat va ilm-fan markazi bo`lgan Samarqandda 1927-yil «mehribon rus og`alarimizning» tashabbuslari bilan kirib kelgan bo`lsa? O`rta asrlar qomusiy olimlar tarjimai hollarini o`rganganimizda, ularning aksariyati, balki, hammasidir, dunyoning qator shaharlari qatori Samarqandda ta`lim olib, boshqa yerlarga yoyilganining guvohi bo`lamiz. Demak, Samarqandda ta`lim olish uchun ta`lim dargohlari va o`qitish uslublari, vositalari mavjud bo`lganki, ular, olimlar, dunyoning ko`zga ko`ringan kishilari doimo unga oshiqishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov A. Ulug`bek Akademiyasi. - T.: "Qomuslar bosh tahririyati", 1994-y.
2. Axmedov B. O`zbekiston tarixi manbalari. T. „O`qituvchi“, 2001
3. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. (2 jild. O`rta asrlar uyg`onish davri). 2002. – 224 b.
4. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi. T., 1997.
5. Madraimov A. Fuzaylov G. Manba Shunoslik. T., "fan" 2004.

International Conference on Education and Innovation

6. Qayumov A. Asarlar. 10 jildlik. 10-jild. Qadimiyat obidalari. Mirzo Ulug‘bek. – Toshkent: Mumtoz so‘z. 2010. – b 220.
7. Saidqulov T. S. O‘rta Osiyo xalqlari tarixi Shunosligidan lavhalar. T., “O‘qituvchi”, 1993.

Valixojayev B. Samarqandda Oliy ta‘lim- madrasayi Oliy-Universitet tarixidan lavhalar. Samarqand., 2001.

